

Date: 25th May-2025

**KELAJAK AVLODNI TARBIYALASHNING PSIXOLO-PEDAGOGIK
XUSUSIYATLARI**

Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchilari

tojiddinyuldoshev1@gmail.com

Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

ulugbekshomurotov986@gmail.com

Murodulloyeva NasibaNurulloyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Boshlang'ich ta'lim 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib kamol topishida ta'lim tarbiyaning o'рни va keng ko'lamli imkoniyatlar, bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, ahloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tafakkur, fikrlash ijodiy tafakkur, badiiy asar, psixologik xarakter, ruhiy olam, mustaqil fikrlash.

**PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FEATURES OF RAISING THE
FUTURE GENERATION**

Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich

Teachers of the Department of Pedagogy and Psychology

tojiddinyuldoshev1@gmail.com

Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

1st year student of primary education

ulugbekshomurotov986@gmail.com

Murodulloyeva NasibaNurulloyevna

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

1st year student of primary education

Annotation. This article discusses the role and wide-ranging opportunities of education in the development of our youth as fully developed and harmonious people, the formation of the foundations of worldview in the child's personality, political, moral, aesthetic and other social factors.

Keywords: thinking, thinking, creative thinking, artistic work, psychological character, spiritual world, independent thinking.



Date: 25th May-2025

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham g'oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan". Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq.

Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu masalada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizni farovonligini yanada yuksaltirishdir" deb ta'kidlagan. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan inson bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etish uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratilishini o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz.

Pedagogikada "shaxs" tushunchasi "inson" tushunchasidan farqli o'laroq, u insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatish natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy (olam) xususiyatlarini rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va hokazo), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatani, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilish, imonli bo'lishi, insonni shaxs darajasiga ko'taradi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda uzluksiz ta'lim tizimi oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobiy hal etiladi. Bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning taqdiri haqida qayg'urish, uning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonish, shuningdek, bolaning xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtai nazarga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'lim insoniyat jamiyati rivojining dastlabki paytlaridayoq katta rol oynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan.

Bugungi kunda pedagoglarning oldida tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim va nima belgilab beradi? degan haqli savol turadi. Tarbiya bilan shug'ullanuvchi har bir pedagog o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadini aniq tasavvur etishi va bu maqsadni muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish zarur, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak degan savollarni tasavvur etish zarurdir. Bu maqsad jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak. Xuddi badiiy asar yaratgandek.

Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, shunday degan edi: "Janobi Haq insonlarning asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuk xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa,



Date: 25th May-2025

baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil, rasvoi odam bo'lib chiqadi"¹.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, psixologik xarakteri, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Bu borada oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyos. Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, ahloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi. Biroq bunda jamiyatimiz taraqqiyoti munosabati bilan oila uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchrayotganliklarini hamesdan chiqarmaslik kerak.

Maktab o'z tarbiyalanuvchilariorasida madaniy qadriyat va dunyoqarashning tarqalib ketishini tezlashtiradi; olingan bilimlar esa ayrim bitiruvchilarning imkoniyatlarini chegaralasa, ayrimlarining o'sishiga yordam beradi. Bolalar o'zlarini ko'p vaqtlarini maktabda o'tkazadilar. Illichning ta'kidlashicha, ular darsda o'rgatilgandan ko'proq narsani maktabdagi muhitdan o'rganadilar. Bolalar birinchi marta mehnat dunyosi nima ekanligini bilib oladilar. Ular kattalar qo'ygan vazifalarni bajarishga kirishib o'ta intizomlilik, tirishqoqlikni o'zlashtiradilar².

Millatlarning tarixiy, milliy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zbek oilalari taraqqiyotini umumiy va xususiy taraqqiyotlar asosida oilaviy tarbiyani maqsadga muvofiq yaxshilash lozim. Bu davlatimizning oilada yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish jarayoniga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalardan biridir.

Ota – ona bolaga yoshligidan hayotga yashash nima ekanini, mashaqqat chekmay, bir burda non topib bo'lmasligini, biror kasb – hunar egasi bo'lmasa, hayotda ko'p qiyinchiliklar ko'rishini uqtirmas ekan, bola voyaga yetgan sari yurar yo'lini bilmay qoqiladi, garangsib, nima yumush qilishini bilmay, bekor qoladi, bekorchilikdan esa bemazagarchiliklar kelib chiqadi, xunuk ishlarga qo'l uradi, odobi, tarbiyasi buziladi. Shuning uchun ham ota – ona bolani kichikligidanoq axloq – odobga o'rgatishi, ilm – hunarli qilishi, dastyorchilikda ko'zini pishitib borishi ham qarz, ham farzdir. Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o'ziga xos va mos bir qator qonun – qoidalari borki, unga qat'iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, bu qonun – qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mumkin, chunki har bir bola – bir olam, ular birining o'ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati, va xulq – atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota – onaning

¹ Abdulla Avloniy, "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent, O'qituvchi. 1992

² Sotsiologiya. Anthoni Giddens T-2002

Date: 25th May-2025

mas'uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro' – e'tibori muhimdir. Ota – ona qat'iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarini teng ko'rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bolaning yoshi, o'sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo'lishi mumkindirki, bu yo'l – yo'riqlar, qonun – qoidalar oilada tabiiy ravishda, muntazam qo'llanma, juda yaxshi natijalar beradi, albatta. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq – atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota – ona kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rnida me'yorida, maqsadga, muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq – atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'rnikelganda nasihat qilish, qat'iy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishonitirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'batlantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota – ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun – qoidalarini o'zgartirib, unga amal qilsa, ayni mudda bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota – onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Bunda ota – onan, oiladagi katta-yu kichik, hamma bir yoqadan bosh chiqarishi, harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag'batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning boshqa vositalarini qo'llashda hammada yakdillik bo'lishi lozim.

Keksalar ko'pincha "Bug'doy eksang bo'g'doy olasan, arpa eksang – arpa olasan" deyishadi. Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo'lishi bu qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg'ular, qanday orzular bilan to'ldirayotganimizga bog'liq. Hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan, sinovlariga bardosh bergan keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan qaraydigan kishi bo'lmasa kerak. Ular o'zlari bilganni sidqidildan farzandlarga o'rgatadilar, ayni paytda donishmandlik bilan yoshlarni yomon xatolardan asrashga harakat qiladilar. Ular insoniyat abadiy zanjirida o'tmishda erishilgan boy ma'naviy qadriyatlarni kelajk avlodga yetkazuvchi bebaho xalqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. – T.: O'zbekiston, 2017- B
2. I.A.Karimov. "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish". Ma'rifat. №5. 05.02.2010.
3. Yuldoshev T.A "Umumiy psixologiya". – Toshkent.: 2024y.
4. Sotsiologiya. Anthoni Giddens T-2002
5. Abdulla Avloniy, "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent, O'qituvchi. 1992
6. G'aybullayeva. N.R. "Oila pedagogikasi". – Toshkent.: 2002y.

